



## COOPERATION AND INTEGRATION PROCESSES IN CENTRAL ASIA

**Shakhzod Yuldoshev**

*Student*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [yuldoshevshahzod2001@icloud.com](mailto:yuldoshevshahzod2001@icloud.com)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, border problems, Central Asia and ethnic aspects.

**Received:** 11.05.23

**Accepted:** 13.05.23

**Published:** 15.05.23

**Abstract:** This article describes the processes of cooperation between the countries of Central Asia and their efforts to achieve integration. The article also describes several main factors hindering this process, and specific ways to solve it. That is, if there are obstacles to cooperation due to borders and the influence of external forces, these factors can be integrated and developed through unions such as the European Union and the historical ethnic unity of states, as they say.

## MARKAZIY OSIYODA HAMKORLIK VA INTEGRATSION JARAYONLAR

**Shakhzod Yuldoshev**

*Talaba*

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [yuldoshevshahzod2001@icloud.com](mailto:yuldoshevshahzod2001@icloud.com)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, Qozog`iston, Qirg`iziston, Tojikiston, Turkmaniston, chegara muommolari, Markaziy Osiyo va etnik jihatlar.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlarining hamkorlik jarayonlari hamda integratsiyaga erishish uchun qilgan harakatlari bayon etilgan. Maqolada shuningdek ushbu jarayonga to`sinq bo`lувчи asosiy bir nechta omillar hamda unga o`ziga xos yechimlar bayon etilgan. Ya`ni hamkorlik jaroyoniga to`sinq bo`lувчи omillar chegara va tashqi kuchlar ta`siri tufayli hamkorlikka to`sinqliklar bo`layotgan bo`lsa ushbu omillarni davlatlarning tarixiy etnik birligi hamda yevropa ittifoqi kabi ittifoqlar orqali

integratsiya va hamkorlikni rivojlantirish  
mukinligi haqida so`z boradi.

## СОТРУДНИЧЕСТВО И ИНТЕГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

**Шахзод Юлдошев**

*Студент*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: [yuldoshevshahzod2001@icloud.com](mailto:yuldoshevshahzod2001@icloud.com)*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Узбекистан, Казахстан, Кыргызстан, Таджикистан, Туркменистан, пограничные проблемы, Центральная Азия и этнические аспекты.

**Аннотация:** В данной статье описываются процессы сотрудничества стран Центральной Азии и их усилия по достижению интеграции. В статье также описаны несколько основных факторов, препятствующих этому процессу, и конкретные пути его решения. То есть, если есть препятствия для сотрудничества из-за границ и влияния внешних сил, эти факторы можно интегрировать и развивать через такие союзы, как Евросоюз и историческое этническое единство государств, как говорится.

### KIRISH

Sobiq Ittifoq parchalanganidan so`ng Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro huquqning to`laqonli a`zosi sifatida maydonga chiqdi va 1991-yildan beri mintaqqa davlatlari hamkorlik jarayonlari uchun harakat boshlandi ayniqsa mintaqadagi yetakchi davlatlar O`zbekiston va Qozog`iston o`rtasidagi raqobat mintaqadagi yetakchilik uchun harakatlari ham hamkorlik uchun va ham bir biridan uzoqlashish uchun ikki tomon uchun ham xizmat qildi. Lekin O`zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I. Karimov hamkorlik rivojlantirish uchun ko`plab harakat qildi bunga misol tariqasida 1994-yil Markaziy Osiyoda hamkorlik tashkiloti (МОХТ) tashkil etildi lekin bu tashkilot faoliyati uzoqqa bormadi ya`ni Markaziy Osiyo davlatlari birlashishiga asosiy to`sinqo bo`lgan omil tashqi kuchlardir. Markaziy Osiyo Yevroosiyo Heartlandi bo`lgani uchun juda katta ahamiyat ro`l o`ynaydi shu sababli bu hududdagi davlatlar birlashishi gigant davlatlar manfaatlariga to`g`ri kelmaydi shu sababli bu mintaqani doimiy o`z nazoratida ushlab turishdi xohlagan katta davlat mintaqqa integratsiyasiga bor kuchlari bilan to`sinqlik qiladi. Undan tashqari Sobiq Sovet davlati tomonidan uzoqni uylab tuzilgan rejasi ya`ni chegarani bo`lish orqali ham bu davlatlar o`rtasidagi muommolari yaratib ketgan. Shuningdek chegaradan ham muhimroq bo`lgan narsa suv muommosi ham bor bu mintaqada. Siyosatshunos olim S.Xantington o`z kitobi „Sivilizatsiyalar to`qnashuviga da 2050-yilga kelib Markaziy Osiyoda suv uchun katta urushlar kelib

chiqishi mumkinligini taxmin qilgan. Bundan shuni tushunish mumkinki Markaziy Osiyoda suv muommosini hal qilinmasa boshqa muommolar o`z yechimini topmaydi. Shu omillar tufayli bu mintaqaga integratsiyasi murakkabligicha qolmoqda.


### ASOSIY QISM

Umaman olganda yuqorida sanab o`tilgan muommolar mintaqasiga uchun eng muhimlaridir eng asosiy omil tashqi kuchlar ta`siri to`xtaladigan bo`lsak.

Tashqi kuchlar nimaga aynan markaziy osiyoda o`z ta`sirini o`tkazishga harakat qiladi degan savolga quyidagicha javob berish mumkin ya`ni bir nechta omillar mavjud ular quyidagicha

- Katta miqdordagi tabiiy boyliklar
- Mintaqasiga global taransport karidori chorahasida joylashganligi

Shular asosiy omillardir quyidagi rasmida biz global transport koridorini kurishimiz mumkin. (1-rasm). Ushbu suratda biz xalqaro transport koridorida markaziy osiyo chorraha ekanligi mintaqadan bir nechta yo`llar o`tganiligi kurishimiz mumkin. Buning natijasida o`z o`zidan gigant davlatlarning manfaatlari asosiy o`ringa chiqadi ya`ni ular chorahhada o`zlarini xohlagan yo`nalishda va xohlagan ta`riflarda yuklarini o`tkazish uchun ham bu mintaqada doimiy ta`sirlarini ushslashga harakat qilishadi. Shuningdek mintaqasiga integratsiyasiga qarshi asosiy ikkita davlat Xitoy va Rossiyadir.



**Rossiya** bu mintaqadan eng katta foyda olishdi shuningdek o`z ta`sir doirasida ushlab turishdi eng ko`p xohlaydigan davlatlardan biridir Sobiq Sovet davlati parchalangandan so`ng uning vorisi sifatida ko`plab siyosatchilar Rossiya deb bilishadi. Bundan shuni tushunushumiz mumkinki Rossiya bu huddudlardan huddi sovet davrida qanday foydanlangan bo`lsa shunday foydalanishni xohlaydi. Uning manfaatlari quyidagilardan iborat:

1. Mintaqada yillar mobaynida shakllangan ta`sirini saqlash
2. Mintaqa energiya resurslari bozorida yetakchilikni yo`qotmaslik
3. O`z milliy xavfsizligi va manfaatlarini ta`minlashda mintaqa imkoniyatlaridan foydalanish

Mintaqani uzoq yillar davomida Rossiyaga qaramligi barcha sohalarda Markaziy Osiyoning Rossiyaga bog`lanib qolishiga olib keldi. 1991-yildan beri Rossiya mintaqaning ana shu bog`liqligini saqlab qolishga intilib kelmoqda. Shu sababli MDH, KXShT, YOII kabi tashkilotlar va ittiqfoqlar tuzib ham iqtisodiy ham harbiy va siyosiy ta`sirini saqlab qolishga intilmoqda. Ammo bugungi kunda bu ikki tashkilotni ham faolligi ancha kamayib qoldi bunga sabab sifatida mintaqa davlatlari integratsiyalashuv jarayonini faollashganligi va Rossiya ta`siridan tezroq chiqish uchun harakatlari sabab bo`lmoqda. Ko`plab xalqaro mashhur siyosatshunoslar mintaqada asosan O`zbekiston Rossiya bilan teng tashqi siyosat olib bormoqda deb hisoblashmoqda bunga quyidagi omillarni keltirishimiz mumkin:

- Rossiya bilan to`gridan to`gri chegaralari yo`qligi
- Mintaqadagi eng ko`p aholiga ega mamlakat ekanligi
- Aholisining 90 % ni o`zbeklar tashkil etishini
- O`zbekistonda 136 millat vakillari tinch totuv yashashi kafolatganligi
- Mintaqaning qoq markazida joylashganligi
- Harbiy salohiyati bo`yicha mintaqada yetakchiliginи
- Mintaqadagi yagona chet el davlatlarining harbiy bazalari bo`Imagan davlatligi

Bu omillar qo`shimcha sifatida iqtisodiy barqarorlikni ham keltirishimiz mumkin ya`ni O`zbekiston mintaqadagi barqaror ikkinchi iqtisodiyotga ega davlatladir. Birinchi o`rindagi Qozog`istonni ham yaqin yillarda quvib o`tilishi bashorat qilinmoqda. Mintaqaning boshqa davlatlari esa asosiy hamkorli sifatida Rossiya deb bilashadi bunga sabab sifatida iqtisodiy jihatdan qaramlik va bu hududdagi Rossiyani harbiy bazalari baribir o`z ta`sirini o`tkazib kelmoqda. Qozog`istonga keladigan bo`lsak bu hududda nimaga mintaqada yetakchiligini ola olmasligini asosiy sabablari quyidagicha:

1. Mamlakatda Rossiya aerodromlari mavjudligi va KXShT a`zoligi
2. Mamlakatda slavyan xalqlari ya`ni ruslarning ko`pligi ayniqsa asosiy. shaharlarida (Ostona, Chimkent, Olmaota ) Mamlakatda rus tilini bilish darajasi yuqoriligi (84% tashkil etadi).
3. Rossiya bilan to`g`ridan to`g`ri eng uzun chegaraga egaligi
4. Asosiy qarzlari Rossiyadan ekanligi
5. Katta tabiiy boyliklari ayniqsa neft Rossiya kompaniyalarida ekanligi

Mana shu omillar tufayli Qozog`iston Rossiya bilan bog`lanib qolgan. Qolgan davlatlar ham xuddi shunday omillar tufayli Rossiya ta`sir doirasiga tushib qolgan.

Mustasno sifatida bugunga kunga kelib Rossiyaning ta'sirining zaif jihatlari kurinmoqda ular quyidagilar:

1. Rossiya mintaqaga o`z raqiblariga nisbatan katta investitsiyalar jalb qila olmayapti
2. Bugungi kundagi muommolari sababli mintaqadagi mavgeni tobora yo`qotib bormoqda
3. Rossiya hukumatidagi amaldorlarni korrupsiyaga botganligi shuning natijasida uning faol geosiyosatiga salbiy ta`sir ko`rsatmoqda

Aynan Markaziy Osiyo davlatlari aynan mana shu omillardan ham foydalanib qolishi zarurdir.

Markaziy Osiyo va Xitoy munosabatlarini asosini geoiqtisodiy gegemonlik tashkil etadi va Rossiyadan farqli ravishda mintaqaning 3 ta davlati bilan chegaradosh hisoblanadi. Mintaqal mamlakatlari asosiy kredetori Xitoy hisoblanadi. Umuman olganda bugungi kunda katta davlatlar biron bir kichik davlatdi o`z ta`sir doirasida ushlab turish uchun avvaliga katta katta kreditlar berib keyinchalik shu yo`l orqali ularning ichki ishlarini boshqarishmoqda. Xitoy keyingi yillarda mintaqaga 100 mlrddan dollardan ortiq investetsiya kiritgan. Bu qolgan davlatlarga nisbatan ancha yuqori natija hisoblanadi. Undan tashqari Xitoy mintaqaga davlatlarini ShHT va Markaziy Osiyo va Xitoy ittifoq va tashkiloti orqali ham o`z ta`sirini o`tkazishga harakat qilib kelmoqda. Moziya nazar soladagigan bo`lsak ham Xitoy uchun Markaziy Osiyo muhim strategik nuqta bo`lgan ya`ni Buyuk ipak yo`li orqali Yevropa bilan bog`langan quruqlikdagi barcha yo`llari shu mintaqqa orqali o`tgan. Tarixan yaqin bo`lgan davlatlar bugungi globallashuv zamonida o`z-o`zidan yanada yaqinlashishga harakat qilishi ta`biy Xitoyshunos olim Ahadjod Xo`jayev aytganidek „Xitoy bilan aloqa qilmaslikni iloji yo`q`` ayniqsa u bilan mintaqaga davlatlarining chegarasi mavjud bo`lgan va mintaqaga bilan juda yaqin bo`lgan davlat sifatida Xitoy bilan aloqalarni o`zib bo`lmaydi. Nimaga uzish kerak degan savolga bugungi kunda geosiyosat va urushlardan kura geoiqtisodiyot xavfliroqdir chunki davlatlardi ichki ishlariga arlashish va ulardi boshqarishda iqtisodiy tomondan kuchli ta`sir o`tkazish xalqaro huquq jihatidan normativ huquqiy hujjatlarga to`g`ri keladi. Shu sababli bu yo`l bugungi kunda gigant davlatlar tomonidan ko`p qo`llanilmoqda. Xitoy va Markaziy Osiyo munosabatlarini bir nechta muhim omil orqali kurib chiqishimiz mumkin:

1. Geografik omil Markaziy Osiyo Xitoy g`arbiy qismida joylashgan mintaqadir Xitoy bu qismida Sinzyan Uyg`ur avtonom rayoni joylashgan Uyg`urlar turkiy tilda gaplashuvchi musulmon millat hisoblanadi.
2. Xitoyning dunyodagi baland obrusi ya`ni Xitoy BMT asoschilaridan biridir va BMT xavfsizlik kengashi a`zolaridan ham biri hisonlanadi. Shu omillar orqali ham Xitoy dunyodagi ko`plab vaziyatlarga o`z ta`sirini o`tkaza oladi. Undan tashqari harbiy jihatdan ham yuqori salohiyatli armiyaga ega. (Dunyoda 3- orin).

3. Xitoy iqtisodiy jihatni dunyodagi 2- o`rindagi iqtisodiyot Markaziy Osiyoga chegaradoshdir buni ham o`ziga yarasha zaif va qulayliklari mavjud mintaqasi uchun istiqbolli savdo aloqalari va bu katta iqtisodiyot ta`siriga tushib qolmaslik uchun ham o`ta muhim hisoblanadi.

Chunonchi Xitoy hukumati bayonotlariga tayanadigan bo`lsak Markaziy Osiyoga hozircha hech qanday xavf solmayapti deb bilishimiz ya`ni Xitoy ham Markaziy Osiyoning rivojlanshi va integrasiylashuv jarayonidan manfaatdor davlat hisoblanadi nimagaki agar mintaqasi rivojlansa Xitoyning Yevropa aloqalari yanada rivojlanadi boshqa mintaqalarga ham chiqishi osonlashadi. Undan tashqari Xitoyning bu mintaqasi bilan tarixiy jihatdan ham mintaqasi eng gullab yashnagan vaqtida ham faol aloqalar qila olgan. Ya`ni mintaqasi gullab yashanagan taqdirda ham Xitoy bilan aloqalar davom etaveradi. Lekin Xitoy siyosati doim ham o`z maqsad vazifalarini ochiq aytavermaydi. Lekin 21-aprelda Xitoyning Fransiyadagi elchisi Lyu Shay LCI telekanaliga bergen intervusida sobiq sovet davlatlari „Xalqaro huquq borasidagi samarali statusga ega emasligi chunki ularning statusiga suveren davlatlar kuchini taqdim etuvchi xalqaro kelishuv yo`qligi`` ta`kidladi. Bu gaplarni boshqa tomondan olib qaralganda Xitoy mintaqasi uchun eng xavfli davlat bo`lib qoladi. Ko`plab siyosatchilar buni Xitoyning kelajakdagini yashirin rerjalarini ya`ni Markaziy Osiyoga asosiy xavf Xitoydan bo`lishi mumkinligini aytishmoqda. Misol uchun Afg`onistonidan Tolibon hukumatidan Amudaryo -daryosidan neft qazib qolish huquqini oldi, Tojikistondan Sarez ko`lidan foydalanish huquqini ham oldi bular juda muhim strategik nuqtalar hisoblandi mintaqasi xavf solishi mumkin endi ularning nazorati Xitoyning qo`lida ekanligini inobatga olsak bu xavflar yanada ortib bormoqda. Xitoy bularni barchasini katta pullar evaziga yoki davlatning qarzlarini evaziga olmoqda. Mana shu omillar tufayli Xitoyning geoijtisodiyoti xavfli hisoblandi. Lekin mintaqaga istiqbolli loyihalar ham taklif qilmoqda misol uchun Xitoy 2022-yil Samarqandda bo`lgan ShHT tashkiloti sammitida Xitoy-Qirg`iziston-O`zbekiston- temir yo`li loyihasini amalga oshira oldi. Bu lohiyadan uchala davlat ham ancha manfaatdor. Bu temir uzunligi 4380km tashkil etadi asosiy investori Xitoy hukumati temir yo`lga asosiy harajatlarni Xitoy hukumati to`laydi. (2-rasm)



Bu temir yo`l uchala mamlakatdi ham Kaspiy dengizga olib boradigan eng tez va qisqa yo`l bo`ladi. U yerdan esa Yevropa bozoriga chiqiladi. Undan tashqari bir yilda 5-10 mln tonna yuk tashish salohiyatiga ega bo`ladi. Bu yo`l orqali O`zbekiston yiligi tranzit yuklar orqali 150- 200 mln dollar foyda ko`radi. Yana bir jihatni Qirg`iziston va O`zbekiston yo`l harajatlari va vaqtidan ham yutadi buning natijasida ikkala davlatning bozorida ham narxlar pasayadi ya`ni oddiy xalq uchun bu yo`l ancha foydali bo`ladi. Bu yo`l realizatsiya natijasida mintaqaga davlatlari O`zbekiston orqali Janubiy Osiyoga chiqishi ham tezlashadi. Ya`ni mintaqaga Rossiya va Xitoy bozoridan alternativ bozorga chiqish tezlashadi va o`z o`zidan ikkala davlat bilan teng siyosat va ular ta`siridan uzoqlashishga va xavflardan himoya vazifasini ham o`tashi mumkin. Xitoy mintaqaga uchun shunday murakkab hamkor davlatlardan biri hisoblanadi.

**Chegara:** Milliy chegaralar davlatlar o`rtasidagi va umuman mintaqqa ichidagi munosabatlardagi keskinlik yoki hamkorlik darajasini belgilovchi asosiy omil ekanligi keng e'tirof etilgan. Hozirgi vaqtida Markaziy Osiyo muhim chegara muammolariga duch kelmoqda, chunki uning tashqi chegaralaridan farqli o`laroq, mintaqqa ichida, asosan Farg`ona vodiysiда chegaralarni belgilash jarayoni hali tugallanmagan. Minglab kilometrlik chegaralar haligacha bahsli bo`lib, mintaqalararo hamkorlikka to'siq bo`lib xizmat qiladi va vaqt-i-vaqt bilan yuzaga keladigan keskinliklarni keltirib chiqaradi. Mustaqillikka erishgandan so'ng sobiq Sovet Markaziy Osiyo respublikalari Sovet Ittifoqi davrida sun'iy ravishda chizilgan yangi, ammo noto'g'ri belgilangan davlat chegaralarini belgilash muammosiga darhol duch keldilar, bu hududning etnik yoki geografik xususiyatlariga. Oxirgi yigirma yil ichida bu O`zbekiston, Qirg`iziston va Tojikiston o`rtasida ko`plab hududiy nizolarning kelib chiqishiga sabab bo`ldi. Keyingi davlatlararo va ijtimoiy keskinliklar nafaqat Farg`ona vodiysi, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni xavf ostiga qo`ydi. Biroq bunday hududiy bahslarning ko`pida ustunlik qiluvchi O`zbekistonda Shavkat Mirziyoyevning hokimiyat tepasiga kelishi ortidan qandaydir ijobiy

qadamlarni kuzatish mumkin. Shu bois Markaziy Osiyoda mavjud hududiy va chegaraviy kelishmovchiliklar bo'yicha ishlarning hozirgi holatini ko'rib chiqish va bu sohadagi so'nggi o'zgarishlarni ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Eng boshidan shuni ta'kidlash kerakki, Farg'ona vodiysini bo'lishuvchi davlatlar o'rtafigi murakkab vaziyatdan farqli o'laroq, Markaziy Osiyoning beshta davlatidan ikkitasi, ya'ni Qozog'iston va Turkmaniston hududiy nizolar bilan bog'liq muammolardan ancha chetlab o'tgan va asosiy delimitatsiya muammosini hal qilgan. Markaziy Osiyoning boshqa qo'shnilar bilan quruqlikdagi chegaralarini o'rnatish, shu bilan ularning qonuniy ro'yxatini to'liq yakunlash. Turkmaniston O'zbekiston (2000 yil sentyabr) va Qozog'iston (2001 yil iyul) bilan tegishli shartnomalarni imzolagan bo'lsa, Qozog'iston bu masalani O'zbekiston (2002 yil sentyabr), Qirg'iziston (2001 yil dekabr) va Turkmaniston (2001 yil iyul) bilan shartnomalar imzolash orqali hal qildi. 2017-yilning 10-noyabr kuni Markaziy Osiyo davlatlari tashqi ishlar vazirlarining Samarcanddagi uchrashuvi doirasida Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekiston chegarasining tutashgan nuqtalari to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Aslida, Qozog'iston tashqi ishlar vaziri Qayrat Abdrahmanovning so'zlariga ko'ra, hujjat ushbu uch davlat o'rtafigi chegaralarini qonuniylashtirish jarayonini yakunlaydi. Eslatib o'tamiz, avvalroq Qozog'iston Xitoy va Qirg'iziston (1999-yil), Qirg'iziston va O'zbekiston (2001-yil) bilan qo'shilish nuqtasi to'g'risidagi shunday shartnomalarni imzolagan edi. Shu bilan birga, Farg'ona vodiysida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston hududlari nafaqat uchrashadigan, balki bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan hududda butunlay boshqacha manzarani kuzatish mumkin. 1991 yilda Sovet Ittifoqining parchalanishi Farg'ona vodiysini bir-birining hududiga da'vogarlik qiladigan uch davlat bilan parchalab tashladi. 1920, 1950 va 1980-yillarda Farg'ona vodiysining turli chegaralarini ko'rsatuvchi sovet davridagi ziddiyatli xaritalar tufayli chegarani tartibga solish bo'yicha muzokaralar yillar davomida to'xtab qoldi, bu esa har bir davlatga o'z manfaati uchun afzal bo'lgan xaritalardan foydalanish imkonini berdi. Natijada chegaralar qisman delimitatsiya va demarkatsiya qilingan, O'zbekiston bilan Qirg'iziston, O'zbekiston va Tojikiston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtafiga bir qator bahsli hududlar mavjud. Sakkizta anklav mavjudligi bilan vaziyat keskinlashmoqda: ulardan oltiasi Qirg'izistonda (to'rtta o'zbek va ikkita tojik eksklavi), ikkitasi O'zbekistonda (bir qirg'iz va bir tojik eksklavi) joylashgan bo'lib, ularda 100 mingga yaqin aholi istiqomat qiladi. chegaraning tashqi tomoni. Shu bois, bu bahsli qismlar to'g'ri kelishib, chegaralanmagan va demarkatsiya qilinmasa, mintaqqa barqarorligi va xavfsizligiga doimiy tahdid saqlanib qoladi. Garchi uch davlat chegara masalalarini hal qilish kerakligi haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa-da, bir-biriga bog'liq omillar - murakkab landshaft, resurslardan foydalanish bilan bog'liq muammolar, chegaradosh jamoalarning millatchilik kayfiyati va siyosiy irodaning yo'qligi - jarayonni ko'proq vaqtga to'xtatib qo'ydi. Aksincha, 2017-yilda erishilgan kelishuvlar va muzokaralar yangilangani bilan katta yutuq

kuzatildi. O'zbekistonning Qirg'iziston bilan chegarasini demarkatsiya qilishda eng sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa, buni O'zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyev va Qirg'izistonning sobiq prezidenti Almazbek Atamboyev o'rtasida 2017-yil oktabr oyida Toshkentda imzolangan chegaraning 1280 kilometridan 1170 kilometri o'rinni oлган. Bu ikki davlat hukumatlari tomonidan 2016-yil sentabr oyining o'rtalaridan buyon amalga oshirilgan sa'y-harakatlarning yakuni bo'ldi, O'zbekiston va Qirg'iziston delegatsiyalari bahsli chegara hududlarini o'ргanish bo'yicha muntazam uchrashib turadi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bu davrda O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi chegara muammolarini hal qilishda oldingi 15 yilda dan ko'ra ko'proq yutuqlarga erishilgan . Biroq, Farg'onada vodiysidagi besh etnik anklavni o'z ichiga oлган chegaraning qolgan qismlarini ikkala poytaxtda ham qat'iy majburiyatlarga qaramasdan hal qilish ancha qiyin bo'lishi kutilmoqda. Ular orasida Qirg'izistondagi O'zbekistonning So'x, Shohimardon, Joni-Ayil va Cho'n anklavlari hamda O'zbekistondagi Qirg'izistonning Barak anklavlari hamda chegaradagi boshqa 36 ta bahsli sektorlar bor. Balki so'nggi paytlarda yuz bergen yaqinlashuvning asosiy omili ikki yetakchining o'zaro til topa olishi bo'lgandir. (4-rasm). Biroq, muammoning markazida bu bahsli hududlarda yashovchi odamlarning hissiyotlari yotadi. Eng maqbul echimlardan biri er almashish, ya'ni chegara bo'ylab o'xshash o'lchamdagisi erlar evaziga anklavlar hududini almashish bo'lib tuyuladi, ammo ayirboshlangan erlarning aholisi ushbu mamlakat fuqarosi bo'lishga tayyor bo'lishi shubhali. ular to'satdan o'zlarini yashayotgan yangi mamlakat. Qirg'iziston janubidagi millatlararo to'qnashuvlar chog'ida 400 ga yaqin o'zbek halok bo'lgan 2010 yildagi fojiali O'sh voqealaridan so'ng qirg'iz va o'zbeklarning bir-biriga nisbatan chuqur qo'rquvini ham unutmaslik kerak.



Ko'chib o'tishning muqobil varianti ham qiyin, chunki odamlar bu anklavlarda avlodlar davomida yashab kelishgan va ko'milgan ajdodlari va qarindoshlarining qabrlarini tashlab ketish ular uchun madaniy jihatdan qabul qilinishi mumkin emas. Qolaversa, aholi zinch joylashgan So'x (50 ming kishi) va Shohimardon (taxminan 5 ming kishi) anklavlarini ko'chirish katta davlat

xarajatlarini talab qiladi. Shuni inobatga olsak, qolgan chegarani hal qilish avvalgi barcha to'siqlarni birgalikda olib tashlashdan ko'ra kam vaqt va kuch talab etmasa kerak. Tojikiston va O'zbekiston o'rta sidagi munosabatlar Markaziy Osiyoda eng muammoli bo'lganiga qaramay, tomonlar o'zaro manfaatdor bo'lgan deyarli barcha masalalar bo'yicha kelisha olmayotgan bo'lsada, o'zbek-tojik chegarasining 1332 kilometridan bor-yo'g'i 93 kilometri bahsliligicha qolmoqda. Umumiyligi chegaranining 84 foizi 2002 yilda chegarani delimitatsiya qilish to'g'risidagi tegishli shartnoma imzolangan va ikki davlat parlamentlari tomonidan ratifikatsiya qilinganida hal qilingan. Biroq chegaranining qolgan qismini tartibga solish yaqin vaqtgacha to'xtab qolgan edi. 2017-yilning 30-31-may kunlari Dushanbe shahrida Davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo'yicha hukumatlararo komissiyaning deyarli besh yil ichida birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. O'zbekiston bosh vaziri Abdulla Aripovning 2018-yil yanvar oyida Tojikistonga tashrifi doirasida muzokaralarning yangi bosqichi bo'lib o'tdi. Aripov va uning tojikistonlik hamkasbi Qohir Rasulzoda savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha Tojikiston-O'zbekiston hukumatlararo komissiyalari, shuningdek, chegarani delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo'yicha muzokaralarda katta yutuq bo'ldi. Muzokaralar natijasida tomonlar ikki davlat chegarasi hududida sovet davrida qurilgan bahsli Farhod GESi bo'yicha murosaga kelishdi. To'g'on va uning inshootlari mustaqillikka erishgandan beri bahsli hududlar bo'lib kelgan. Bitimga ko'ra, Tojikiston tomoni ob'ekt joylashgan yer uchastkasiga egalik qiladi, stansiya esa jihozlari va infratuzilmasi bilan O'zbekiston tomonining mulki bo'lib qoladi. Ba'zilarning fikricha, bu yutuq chegara masalalarini to'liq miqyosda hal etishda yaqinlashib kelayotgan muvaffaqiyatdan dalolat beradi. Tojikiston Yer tuzish va geodeziya davlat qo'mitasi rahbari Rajabboy Ahmadzodaning so'zlariga ko'ra, "tojik-o'zbek chegarasi munozarali bo'lib qolmoqda lekin bu kelishmovchilik yaqin kelajakda hal bo'ladi". Shu nuqtai nazardan, Prezident Mirziyoyevning 2018-yil bahorida bo'lib o'tgan Tojikistonga tashrifi sezilarli natijalar berdi.



## XULOSA

Yakun sifatida shuni alohida ta`kidlash kerakki Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyaga tashqi kuchlar ta`siridan ham ko`ra kuproq ular o`z ichki muhitlarini ya`ni bir biri aloqalardi yaxshilashlari eski adovatlardi unutish orqali hamda etnik birlik va tarixiy sivilizatsiyaning muhimligini hamda tarixan bu mintaqadagi davlatlar fuqorolari azaldan birga yashaganligini inobatga olgan holda va shuningdek ko`p bor ta`kidlaganimizdek bugungi o`ta globallashgan zamonda bir yoqadan bosh chiqarib birlashishlari zarurdir. Aslini olganda mintaqaning birlashishi juda ham oson ya`ni bu mintaqaning madaniyati tili va dini birdir bu omillar integratsiyada juda qo`l keladigan omildir. Agar bu davlatlar birlashsa mintaqqa iqtisodiyoti ham harbiy qudrati ham keskin rivojlanadi. Misol uchun tahvilchilar fikriga ko`ra agar mintaqqa integratsiyalashsa mintaqqa

1. YIM 347 milliard dollar dunyoda 38 o`rin
2. Aholi 78 million dunyoda 20-o`rin
3. Qurolli kuchlar bo`yicha 25-o`rin dunyoda
4. Iqtisod bo`yicha 39-o`rin dunyoda
5. Gaz qazib qolish mintaqqa bo`yicha 150 mlrd kub metrdan oshadi

Undan tashqari mintaqqa davlatlari integratsiyani rivojlantirish uchun quyidagi ishlarni qilishi zarur:

1. Bilimli kadrlardi ko`paytirish va ularga yetarli sharoitlardi qilib berish
2. Brain Drain kamaytirish chetga chiqib ketayotgan yoshlardi saqlab qolish
3. Mintaqadagi soft power jiddiy qarshi turish
4. Asta sekinlik bo`lsada Yevropa Ittifoqi tashkiloti tajribasidan foydalanib ularni sekin sekin amalyotda qo`llash

Mana shunday yuqori natijalardi kurishimiz mumkin bo`ladi. Tashqi kuclar bilan butunlay aloqalardi uzib quyib ham ularning ta`siridan chiqib ketib bo`lmaydi aksincha ular bilan savdo-iqtisodiy aloqalardi rivojlantirib o`z iqtisodiyotini rivojlantirish orqali hamda ularning tajribasidan foydalanish orqali ham ulardi ta`siriga tushib qolmaslik mumkin. Ya`ni gigant davlatlar avvalambor qanday qilib kuch qudratga erishgan degan savolga avvalambor ular ilm fandi rivojlantirishdi juda ko`plab investitetsiyalardi faqat ta`limga berishdi ular shu orqali dunyoda o`z o`rinlarini topishdi va dunyoda o`z so`zlarini o`tkaza boshlashdi. Markaziy Osiyonni Chor Rossiyasiga qul qilgan narsa ham aynan bilimsizlikdir. Mintaqqa avvalambor aholisini bilimli qilsagina bu mintaqaga tashqi kuchlar ham boshqa omillar ham mintaqqa integratsiyasiga qarshi tura olmaydi. Ya`ni bu so`zlar yuqori parvoz so`zlar emas bu so`zlar bugungi kunda o`z tasdig`ini topgan so`zlar har bir rivojlangan mamlakatdi asosini o`z vatanini sevuvchi ilmli shaxslar rivojlantirgan O`zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov ayganlaridek hech qaysi davlatga hech kim chetdan kelib yordam bermaydi hammasini o`zimiz qilishimiz kerak degan

edilar. Buning uchun har bir qozoq o`zbek qirg`iz turkman va tojik o`z vatanini sevishi haqiqiy vatani uchun o`zining avlodlari chin dildan ishlashi zarur. Misol uchun Yaponiya ikkinchi jahon urushidan so`ng o`zidagi bor mol mulkini davlatga berdi fuqorolari davlatdi rivojlantirish uchun maosh ham olmasdan ishladi faqatgina davlatdan kunlik ehtiyojlari uchun yegulik va kiyim kechak olib ishladi. Mana shunday mafkurani yoshlarimizga singdirishimiz zarur ana shunda Markaziy Osiyoda integratsiya bo`ladi ana shunda Markaziy Osiyoda rivojlanish bo`ladi. Yana bir jihat borki dunyoda eng ko`p aqillardi boshqa (Brain Drain) davlatlarga chiqib ketish reytingida Markaziy Osiyo 3-o`rinda turarkan chet eldag'i aqilli kadrlardi ortga qaytarish orqali ham juda ko`plab muommolarga yechim topishimiz mumkin. Undan tashqari mintaqaga davlatlari soft power ham kuchsizlantirishlari zarurdir. Undan ko`ra o`z ona tillarini rivojlantirishlari uchun barcha ishlarni qilishi zarur

Mana shu zaif omillarni bartaraf etsak va u muommolarga yechim topa olsak Markaziy Osiyo mintaqasi birlashishi juda tezlashib ketadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. S. Burunov O`zbekiston geosiyosati O`quv qo`llanma -T:2021- 53-64-b
2. S.Safoyev Markaziy Osiyodagi geosiyosat T:2005 – 77-b
3. O. Sirojov Toshkent <<O`zbekiston>> 2016 164-b
4. <https://www.eurasian-research.org/publication/current-state-of-border-issues-in-central-asia/>
5. [https://www.youtube.com/c/AzonTVuz?sub\\_confirmation=1](https://www.youtube.com/c/AzonTVuz?sub_confirmation=1) intervyu 2022-y
6. <https://unece.org/news/supporting-central-asian-economies-integration-multilateral-trading-system>
7. <https://thediplomat.com/2022/09/china-kyrgyzstan-uzbekistan-move-railway-plans-forward-with-agreement-at-sco/>
8. [https://www.theglobaleconomy.com/rankings/human\\_flight\\_brain\\_drain\\_index/](https://www.theglobaleconomy.com/rankings/human_flight_brain_drain_index/)